



To'ra Sulaymon she'rlarida lingvopoetika

Jabborova Gulchexra

GulDU 2-kurs magistr

Annotatsiya: O'zbek adabiyotida shunday shoirlar bo'ladiki, ularning adabiyotimiz darg'alariga, millatimizning ma'naviy merosini boyitishga, o'zbek xalqining ma'rifatini yuksaltirishga qo'shgan hissalarini hech qanday moddiy va ma'naviy boylik bilan taqqoslab bo'lmaydi. Bunday ijodkorlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Ana shunday shoirlarimizdan bo'lgan To'ra Sulaymon ijodining xalqimiz ma'naviyati va ma'rifatida tutgan o'rni beqiyos.

Kalit so'zlar: ijod, badiiy, adabiyot, ijodiy meros, To'ra Sulaymon, she'riyat va h.k.z

To'ra Sulaymon o'zbek adabiyotida betakror she'riyati va o'ziga xos uslubi bilan o'chmas iz qoldirgan, badiiy ijodning yorqin namoyandalaridan biridir. Darhaqiqat, To'ra Sulaymon o'zbek adabiyotida o'z sozi, o'z ovozi va o'z o'rniga ega bo'lgan shoirlarimizdan biri edi.

O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi bilgan, puxta o'zlashtirgan va ularning imkoniyat hamda yutuqlaridan o'z asarlarida samarali foydalangan ijodkorlardan biri sanaladi. Xususan, shoir dostonlarida og'zaki adabiyotning eng katta janri bo'lgan xalq dostonlarida keng qo'llaniluvchi badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lgan saj'ning o'rni va ahamiyati katta. Saj' nasrdagi qofiya hisoblanadi. Saj' badiiy matnda ohangdoshlik hosil qiladi. Ohangdoshlik esa badiiy asarga o'zgacha joziba baxsh etadi, uning ta'sirchanligini yanada oshiradi, badiiyatini esa yuqori darajaga ko'taradi. Bu jihatdan qaraganda ijodkorning "Qorasoch" nomli dostoni alohida ajralib turadi. Dostonda saj'ning bir necha ko'rinishlari uchraydiki, ular asar qahramonlariga xos xususiyatlarni ochishga xizmat qilishi bilan birga nutqning jozibadorligini ham oshiradi: " - Qizginam, qimizginam, daryoda qunduzginam, deganning qo'ynida tun bo'yi yulduzginam, bo'z yigitlar qoshida qilig'i tamizginam. O'rinboyning yori bor, oh, mening yolg'izginam?.. "

Hojiya qizning yangalariga tegishli mazkur nutqning dastlabki gapi hazil-mutoyiba orqali erkalash jarayonini yuqori darajaga chiqarmoqda. Odatda yanga va qayinsingillar orasida hazil-mutoyibaning bo'lishi tabiiy bir hol, qayinsingillar yangalari bilan sirlashgan, boshqalarga aytolmagan gaplarini ham yangalariga aytishgan, yangalar qayinsingillar uchun o'ziga xos tayanch, suyanch va hamdard vazifasini ham bajarishgan. Keltirilayotgan misolning keyingi gapi yangalarning qayinsingil taqdiriga






befarq emasligini ko'rsatadi. Chunki unda Hojiya qizning taqdiriga achinish ruhi ham sezilib turibdi. Aynan birinchi gapda saj' ko'rsatkichlari bo'lgan qizginam, qimizginam, qunduzginam, yulduzginam, tamizginam so'zlariga ikkinchi gapdagi yolg'izginam so'zi ohangdoshlik hosil qilib, saj' yuzaga kelishini ta'minlayapdi hamda Hojiya qiz hayotiga bo'lgan achinish ruhini kuchaytirishga xizmat qilyapdi.

Badiiy tasvir vositasi sifatida saj' butun dostonni boshqaradi. Tasvir jarayonida Qorasochning otasi Qodir maxsumning qizi uyiga kirib kelishi Qorasoch va uning suhbatdoshlari o'rtasidagi suhbatning to'xtashiga sabab bo'ladi. Voqealar rivojining keyingi jarayonini tasvirlashda ham To'ra Sulaymon saj'ning yana bir imkoniyatidan foydalanishga harakat qiladi: "Istihola yuzasidan so'z joyida qoldi, dasturxon o'z joyida qoldi; surpa yozilganicha qoldi, xamir uzilganicha qoldi; qumg'on qo'yilganicha qoldi, tovuq so'yilganicha qoldi". Sodda gap tarzidagi mazkur saj' ko'rinishi badiiy tasvir vositasining talablariga to'liq javob beradi hamda dostonda eng ko'p uchraydigan saj' ko'rinishlaridan biri sifatida etakchi o'rin egallaydi.

Saj' To'ra Sulaymonning "To'lg'onoy" dostonida ham keng qo'llaniladi. Ayniqsa, dostonda o'xshatish asosiga qurilgan saj' ko'rinishi namunalari alohida ajralib turadi: "G'oyibnazar polvonning boyvuchchasi ko'rkamlikda gulday, to'kislikda sumbulday, sochlari majnuntoday, yuzi-qoshi hilolday, beg'uborlikda zilolday, xuddi sohibjamolday bo'lsin, har ishga ko'zli bo'lsin, o'zi bir so'zli bo'lsin, deb qizining otini To'lg'anoy qo'ygan edi". Mazkur matn To'lg'anoy obraziga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, undagi ta'sirchanlikning asosiy omili - o'xshatish va saj' hisoblanadi. Saj'ning bunday ko'rinishi faqat qizlarga xos xususiyatlarni yuzaga chiqaribgina qolmasdan, balki yigitlarga xos bo'lgan fazilatlarni ham tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, shoir dostonidagi Eryigit obrazi tasvirida ham shu yo'ldan boradi: "Odil polvon ham devday qomatli bo'lsin: baxtli-omadli bo'lsin, qarchig'ay kelbatli bo'lsin, Yusuf sumbatli bo'lsin, er desa erday bo'lsin, deb o'g'lining ismini Eryigit qo'ygan edi".

Saj' tasvir jarayonida qahramonning ruhiy holatini berishda ham o'ziga xos imkoniyatlar yarata oladi. Bunday xususiyatni "To'lg'onoy" dostonidagi Odil polvon obrazi misolida ham kuzatish mumkin: "Odil polvon tishini tishiga qo'yib, qosh-qovog'ini uyub, bir xil tikanakli gapga ichidan kuyib, goho shaytonga hay berib, musht o'qtalishdan salkam o'zini tiyib, bularning xuddi otuvga hukm qilingan odamni oraga tushib olib qolganday o't olib gurillashidan battar ixlosi qaytib, soqolini silab, ko'zlarini olaytirib dedi". Mazkur tasvir o'zga yurtga ko'chishga qaror qilgan Odil polvonga qarindoshlari tomonidan "o'g'ling er etib, qizing bo'y etganda boshqa yurtda





iting adashibdimi?” qabilidagi aytilgan gaplardan so’ng beriladi. Unda qahramonning gap ko’tarmasligi, o’ziga xos g’ijinishi, qosh-qovog’ini uyushi, ko’zini olaytirishi kabi holatlar bilan birgalikda, ta’na dashnomlar ta’siridagi ichki bir ruhiy holati bilan bog’liq o’y-fikrlari shu darajada mahorat bilan beriladiki, uni o’qigan kitobxon xuddi Odil polvonni ko’z oldiga keltirganday bo’ladi.

Og’zaki adabiyotning xalq orasida keng tarqalgan va ommalashgan janrlaridan biri maqol hisoblanadi. Har bir maqolda ibratli fikr mavjud bo’ladi. Ibratli fikrning hammasi ham maqol bo’lavermaydi. Ibratli fikr maqolga aylanishi uchun bir qancha bosqichlarni bosib o’tishi lozim. Shulardan biri uzoq yillar xalqning tajribasida sinalgan ibratli fikr ixcham, mukammal badiiy shaklga ham ega bo’lishi kerak. Maqollarning aksariyatida ham ohangdoshlik kuzatiladi. Maqollardagi ana shu xususiyatdan shoir ustalik bilan foydalanadi. Natijada shoir dostonlarida maqollar asosiga qurilgan saj’ ko’rinishi namunalari paydo bo’ladi. Bu esa ta’sirchanlikni yana bir karra oshirishga xizmat qiladi: “Elga el kelsa davlat, eldan el ketsa kulfat. Bo’z bergan bilan bo’lma, so’z bergan bilan bo’l. Yangiobodliklarning hammasi so’zi bilan ishi, yumushi bilan turmushi, orzu armoni, ahdu paymoni bir”. Keltirilayotgan misolning birinchi va ikkinchi gaplarida maqollardan foydalanilgan. Eng asosiysi ularda ohangdoshlik bor. Keyingi gap esa shoirning an’anaviy saj’ yaratish imkoniyati asosida yuzaga kelganligi ko’rinib turibdi. Saj’ning bunday ko’rinishi shoir dostonlarida o’ziga xos bir an’anaga aylanadi va bu orqali ilgari surilayotgan fikrlar maqollar yordamida asoslashga harakat qilinadi: “Quda-andalik joyingdan qulunli biyangni ayama, degandek kuyov tomonidan ulug’ ayyom kunlari qiz tomonga tovoq-tovoq bo’g’irsoq lasi bilan, yo bo’lmasa qaymoqqa pishgan qatlama ustida atlasini bilan, qizning otasiga oqliq, onasiga quroqlik yuboriladi”. Ma’lumki, xalq dostonlari matni tarkibi nasriy hamda she’riy qismlardan tashkil topadi. Nasriy qismga qaraganda she’riy qismning dostonlar tarkibida ko’proq uchrashi xalq dostonlariga xos xususiyat hisoblanadi. To’ra Sulaymon dostonlarida esa nasriy qism etakchilik qiladi. Albatta nasriy qismda xalq dostonlarida uzoq yillar tajribadan o’tgan saj’ning imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalaniladiki, bu To’ra Sulaymon ijodi yuqori darajaga ko’taradi.

O’zbekiston xalq shoiri, baxshiyona uslub asoschisi To’ra Sulaymon she’riyati buning yorqin isboti. Uning nomi balki keng kitobxonlar olamiga yaxshi tanish emasdir. Ammo uning she’rlari bilan aytiladigan qo’shiqlarni bilmaydigan, tanimaydigan, ulardagi nolalarni eshitganda oh tortib yubormaydigan, chuqur o’ylar, ezgin, ammo





ezgu xayollarga tolmaydigan o'zbek topilarmikan? Bo'lsa, bir qalb so'zi- qo'shig'i shunchalik bo'lar-da?

Odatda, she'r qo'shiq bo'lib ketsa, barcha davralarda qo'shiq qilib aytilsa, she'r ijodkori emas, qo'shiq ijrochisi alqanadi. Bunga hech qanday e'tirozimiz yo'q. Qo'shiqchining xizmati, darhaqiqat, olqishga sazovor. Ammo shu erda, shunday damlarda she'r muallifini ham eslab, ulug' nomi aytib ketilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Zotan, zo'r qo'shiq she'rining ijodkori ham qo'shiqchidek hurmat-e'zozga loyiq emasmi? Loyiq, albatta. Bas, shunday ekan, zo'r qo'shiq aytilmasdan oldin uning she'ri muallifi nomini aytib, eslatib o'tish, e'lon qilish taomilga aylansa, yanada go'zal va xayrli ish bo'lar edi. Har vaqt yaratganga shukr, deymiz. Qo'shiq yaralishi uchun, avval, birinchi galda, uning so'zi - she'r bo'lishi, she'riy matn yaratilishi shart. Zo'r qo'shiq, avvalo, zo'r she'rdir, undan keyin zo'r qo'shiq bo'ladi. Aks holda, zo'r ohang, yoqimli ovoz, jarangdor sas, sado bo'lishi mumkin, ammo zo'r qo'shiq bo'lmaydi. Zo'r qo'shiq zo'r she'rning totli, suygun mevasi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, haqiqatan, o'zbek xalqining sara qo'shiqlari orasida To'ra Sulaymon she'ri bilan aytiladiganlari ham muhim o'rin tutadi. Aslida, shuning o'zi ham bir shoir uchun etarli. Bunday baxt ham kamdan-kam ijodkorlarga nasib qiladi. Ammo, shunga qaramasdan, To'ra Sulaymon qo'shiqchi shoir emas. Ko'p she'rlarining qo'shiq bo'lib ketgani, qo'shiq qilib aytib yurilishi uning ijodining xarakterli xususiyatlaridan biri, xolos. U tom ma'nodagi shoir, ulkan so'z san'atkori, etuk she'riyat sohibi, barkamol badiiy asarlar muallifi, xudo nazar solgan iste'dodli adib, zamonamizning mashhur yozuvchi, shoirlari tan olgan tug'ma ijodkor. Uning ijodiy merosida qo'shiq qilib aytib bo'lmaydigan, ammo she'r sifatida mumtoz mazmun va shaklga ega bo'lgan badiiy mukammal asarlar ham oz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent. 2009.
2. Sulaymon To'ra. Jahonnoma: dostonlar, ertaklar, hikoyalar, ocherklar. – Toshkent, 1996 y. – 224 b.
3. To'ra Sulaymon. "Iltijo" G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti –Toshkent:.1976
4. To'ra Sulaymon. "Istar ko'ngil" G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti –Toshkent:.1979.
5. To'ra Sulaymon. Sensus yolg'iz, g'arib bo'ldim -T.: 2013.
6. "To'ra Sulaymon zamondoshlari xotirasida" - Toshkent "Mumtoz so'z" 2017.

